

NAVRO‘Z VA SUV

Umumxalq bayrami haqida qo‘llanama

SUV SOHASIDA BARQAROR RIVOJLANISH MARKAZI



TOSHKENT – 2026-YIL

Muqaddima

Xalqimiz milliy yuksalish va milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ygan hozirgi vaqtda barcha ezgu qadriyat va an'analarimiz qatori Navro'z bayramining ham hayotimizdagi o'rni va ahamiyati tobora ortib borayotganini alohida qayd etish kerak.

Ayniqsa, ushbu qadimiy bayramning ruhi va falsafasida mujassam bo'lgan yasharish va yangilanish, yaxshilik va bag'rikenglik, tabiatni asrab-avaylab, doimo u bilan uyg'un bo'lib yashash kabi o'lmas g'oyalar bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning asosiy maqsadi va ma'no-mazmuniga g'oyat hamohang ekanini ta'kidlash lozim.

Navro'z kunlarida inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik, ona zaminga mehr va e'tibor yaqqol o'z ifodasini topishini ko'rsatib beradigan, atrof-muhitni, uning ne'matlarini asrab-avaylash, bugungi tinch hayotni qadrlab, shukronalik tuyg'usi bilan yashashga da'vat etadigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni uyushtirish mamlakatimizda ezgu an'anaga aylangan.

"Buyuk tarixda hech narsa izziz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarda namoyon bo'ladi".

Sh.Mirziyoyev

Yurtimizda millatlararo do'stlik va totuvlik muhitini mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli ishlarning amaliy natijalari, O'zbekiston fuqarosi bo'lgan turli millat va elat vakillarining Navro'z bayramini nishonlashga oid urf-odatlarini, an'ana va qadriyatlarini keng namoyish etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Uch ming yildan ziyod tarixga ega **Navro'zi olam – sharqona yangi yil** o'zining yangilanish, bahor nafasini boshlab kelishi, xalqimizning tabiati, ongu tafakkuri, qalbiga chuqur singib ketgani, har qaysi oila, har qaysi xonadonga shodu xurramlik olib kirishi bilan biz uchun eng qadrli, aziz va suyukli milliy bayramdir.

Navro'z bayramining nishonlanish tarixi bilan bog'liq ma'lumotlar turlicha talqin qilinadi. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy shunday yozadi: "Navro'z o'tmish zamonlarda quyoshning saraton burjiga kirish paytiga to'g'ri kelar edi. So'ngra u orqaga surilgach, bahorda keladigan bo'ldi. Endi u butun yil unga xizmat qiladigan bir vaqtda, ya'ni bahor yomg'irining birinchi tomchisi tushishidan gullar ochilguncha, hayvonlarda uyg'onish mavsumi boshlanishidan to nasl vujudga kelgunicha davom etgan vaqtda keladi. Shuning uchun Navro'z olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan".



Navro'z bayramiga oid qaydlar qadimgi Xitoy solnomalarida ham uchraydi. Xususan, qadimgi Xitoy muarrixi Vey Sze Samarqandliklar nishonlagan Navro'z bayrami haqida shunday yozgan: "O'sha kuni podshoh ham, xalq ham yangi liboslarini kiyadi, soch-soqollarini oldiradi. Shaharning kunchiqar tarafidagi daraxtzor yonida joylashgan maydonda to'planishib, bayram qilishadi. Yetti kun mobaynida mohir tirandozlar ot choptirib, kamondan nishonga o'q otish bahsida qatnashadi. Yettinchi kun nishon o'rnida oltin tanga qo'yiladi va uni bexato urgan mergan bir kun shohlik qilish huquqini qo'lga kiritadi".

Shundan bilish mumkinki, Xitoydan to Bolqonga qadar cho'zilgan mintaqada muayyan xalqlar, xususan, Eron, Afg'oniston, Iroq, Suriya, Ozarbayjon, Bahrayn, Livan, Pokiston, Hindiston, Markaziy Osiyo mamlakatlari, Turkiya, Albaniya hamda boshqa o'lkalardagi millatlar bahorgi tengkunlikni bir necha ming yildan beri tantana qilib kelmoqda. Umuman olganda, Navro'z bayrami insoniyat o'zligini ilk bor yorqin namoyon eta olgani bilan ham ahamiyatlidir.

Navro'z bayrami 2009-yil 30-sentyabr kuni YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi. 2010-yil 19-fevral kuni BMT Bosh Assambleyasining 64-sessiyasida 21-martni xalqaro Navro'z kuni sifatida nishonlash to'g'risida qaror qabul qilindi. Bu bayram endilikda xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynayotganiga hech kim shubha qilmaydi.

BMT tomonidan qabul qilingan qarorga ko'ra, Navro'z nishonlanadigan mamlakatlarbayram bilan bog'liq an'ana va uning kelib chiqish tarixini o'rganib, bu merosni xalqaro miqyosda keng targ'ib qilmoqda.

Shu tariqa Navro'z biror bir millat yoki madaniyatning bayrami sifatida emas, balki butun insoniyat merosining ajralmas qismiga aylandi. Navro'z yaxshi qo'shnichilik, hamkorlik, madaniyatlararo muloqotni rag'batlantirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Xulosa o'rnida aytganda, Navro'z o'zida yangilanish, yasharish, tinchlik, bunyodkorlik kabi umumbashariy g'oyalarni birlashtirib kelmoqda.



Kirish

Umumxalq bayramlari har bir xalq hayotida muhim ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy hodisa hisoblanadi. Ular jamiyatning birlik va hamjihatligini mustahkamlash, milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani asrash hamda kelajak avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasida umumxalq bayramlari davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralib, ularni nishonlash orqali milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analar izchil ravishda rivojlantirib borilmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida umumxalq bayramlari nafaqat madaniy merosning tarkibiy qismi, balki jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, fuqarolar o'rtasida birdamlik va hamkorlikni kuchaytirishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Umumxalq bayramlarining ijtimoiy-siyosiy ahamiyati O'zbekiston Respublikasida keng nishonlanadigan Mustaqillik kuni, Navro'z bayrami, Konstitutsiya kuni, Xotira va qadrlash kuni hamda boshqa muhim sanalar xalqimiz hayotida alohida o'rin egallaydi. Ushbu bayramlar mamlakatimiz tarixidagi muhim bosqichlarni aks ettiradi hamda jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi. Mustaqillik bayrami xalqimizning ozodlik, erkinlik va suverenitet sari intilishlarining yorqin timsolidir. Ushbu sana davlat mustaqilligini mustahkamlash, fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish hamda Vatanga sadoqat tuyg'ularini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar targ'iboti Umumxalq bayramlari xalqimizning boy ma'naviy merosini asrab-avaylash va uni kelajak avlodga yetkazishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, Navro'z bayrami tabiat uyg'onishi, inson va tabiat uyg'unligi, mehr-oqibat, saxovat va bag'rikenglik kabi umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etadi. Navro'z bayrami orqali jamiyatda ijtimoiy birdamlik, o'zaro hurmat va hamjihatlik muhitini mustahkamlashga erishiladi. Yoshlar tarbiyasida umumxalq bayramlarining o'rni Umumxalq bayramlari yosh avlodni vatanparvarlik, milliy g'urur va fuqarolik mas'uliyati ruhida tarbiyalashda muhim pedagogik ahamiyatga ega.

Bayram tadbirlari, madaniy-ma'rifiy anjumanlar, sport musobaqalari va ijodiy tanlovlar orqali yoshlarning ijtimoiy faolligi oshiriladi hamda ularning jamiyat hayotidagi ishtiroki kengaytiriladi. Xulosa qilib aytganda, umumxalq bayramlari jamiyat hayotining ajralmas qismi bo'lib, ular milliy birlikni mustahkamlash, ma'naviy qadriyatlarni targ'ib qilish hamda barqaror taraqqiyotga xizmat qiladi. Kelgusida ham umumxalq bayramlari orqali milliy an'analarni asrab-avaylash, yosh avlodni komil inson etib tarbiyalash hamda yurtimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash yo'lidagi sa'y-harakatlar izchil davom ettiriladi.

Navro‘z va suv: tarixiy va ma’naviy ildizlar

Qadimgi Sharq falsafasida Navro‘z tabiatning to‘rt unsuri – yer, suv, havo va olovning yangilanishi sifatida ko‘rilgan.

- **«Suv – hayot manbai»:** Navro‘z kelishi bilan muzlar erib, daryo va soylar suvga to‘ladi. Xalqimiz azaldan bahorning ilk suvini muqaddas bilib, unga shukronalik bilan qaragan.
- **Suv bilan bog‘liq udumlar:** Qadimda Navro‘z tongida oqar suv labiga chiqib, unga boqish, yuz-qo‘llarni yuvish niyatlar ijobat bo‘lishiga ishora hisoblangan. Ba’zi hududlarda idishlarni buloq suvi bilan to‘ldirib qo‘yish odati yilning seryog‘in va barakali kelishini ifodalagan.

Sharqning Aristoteli deb e’tirof etilgan Abu Nasr Farobiy «Fozil shahar odamlari qarashlari», «Ilmlarning kelib chiqishi to‘g‘risida» asarlarida to‘rt unsur, xususan – olov, havo, suv va tuproq doimo yaxlit. Ular oy doirasi ostidagi substansiyaning – javharning massasini tashkil qiladi. Ularning sifatlari to‘rtta – issiq, sovuq, namlik va quruqlik. Ular substansiyaning aksidensiyasini (*obrazi*)ni vujudga keltirib, harakat va o‘zgarishni keltirib chiqaradi, deya o‘rgatgan hikmatlari ham olamni asrash an‘analari qadimiy qadriyat ekanligining ifodasidir.

HAVO - tiriklik ibtidosi, davomiylilikning asosiy manbai. U ko‘zga ko‘rinmaydi, qo‘lga ilinmaydi. Biroq uni biz butun vujudimiz bilan his etamiz. Havoning kuch-qudrati ham ana shu yo‘qlikdan mavjudlikka, bo‘shliqdan borliqqa asos bo‘lganidir. Ota-bobomizning yer yuzidagi birinchi ayolni Momo Havo deb atagani ham bejiz bo‘lmasa kerak.

TUPROQ – bu bizning Ona Yerimiz. Odamzotning tub qo‘yib, tomir yoyib, o‘zligini namoyon etish imkoni berilgan muqaddas makon. Barcha modda tuproqda unadi, kamol topadi va yana tuproqqa qaytadi. Ona zaminimiz jamolida o‘tmish va butunning uzviyligi aks etgan. Tuproq eskini ko‘madi, yangini undiradi. Doimiy tiriklikni ta‘minlaydi. Oftobdan zarra, suvdan qatra olib, chiroy ochadi. Rabg‘uziyning “Payg‘ambarlar qissasi” asarida Yaratgan egamning Odam otamizni tuproqdan yaratganligi ta’kidlanishi ham bejiz emas.

SUVni xalqimiz obi hayot deya ulug‘laydi. Suv bor joyda hayot bor. Qora tuproq gulchechakka, shig‘il-shig‘il mevali bog‘larga aylanadi. Momolarimiz farzandlariga “Tushingni suvga ayt” deya uqtiradilar. Suv dilning g‘uborlarini yuvib ketadi. Axir farzand onagagina dardini aytadi. Onadek bola tilini, dilini bilguvchi, yupatguvchi, ko‘nglini ko‘targuvchi topilmaydi.

Olimlarning ta’kidlashicha, dastlab Ona zaminimiz ulkan ummondan iborat bo‘lib, ilk mavjudotlar uning bag‘rida paydo bo‘lgan. So‘ngra suv chekinib, yer ochilgan. Unda hayot boshlangan. Hozir Ona sayyoramizning yetmish bir foizi ummondan iborat. Inson jismining ham to‘rttdan uch qismini suv tashkil qiladi. Bu ham

suvning tiriklik, hayot manbai ekanligini aks ettiradi. Inson vujudidagi suv yosh o'tgan sari kamayib boradi va shu tufayli odamzot vujudida keksarish vujudga kelishini bugungi kunda olimlarimiz isbotlashgan

OLOV – quyoshning zarrasi! Uning yaratuvchanlik, ohangrabolik qudrati beqiyosdir. Chunki, quyosh tiriklik manbai, murod hosil qilguvchi quvvatdir. Jamiki, mavjudot quyoshga intiladi, hatto o'simliklar ham.

Sharq falsafasining uzviy bir qismi bo'lmish tabiat bilan, borliqning uyg'onishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan Navro'zi ayyom an'analarining mazmun-mohiyati mantiqiy kuchga ega ekanligini allomalar ta'kidlagan to'rt unsur bilan chambarchasligini bugungi kunda butun jahon ahli tan olmoqda, desak xato bo'lmaydi.



Navro‘z va Butunjahon suv kuni

Butunjahon suv kuni har yili **22-mart** sanasida nishonlanadi. Ushbu sana 1992-yilda Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida bo‘lib o‘tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi qaroriga asosan joriy etilgan. Tashabbus Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan ilgari surilgan.


Ushbu sana BMT Bosh assambleyasining qarori bilan 1993-yildan beri **Navro‘z** bayrami bilan birga keng nishonlanadi.

Shu munosabat bilan har yili “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universitetida tadbir o‘tkaziladi.

Butunjahon suv kuniga bag‘ishlab bugun Milliy tadqiqot universitetida bo‘lib o‘tgan tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vaziri Sh.Xamrayev, xalqaro tashkilotlar vakillari, universitet professor-o‘qituvchilari, tadqiqotchilar ishtirok etdi.

Universitet rektori, professor B.Mirzayev anjumanni kirish so‘zi bilan ochdi.

Iqlim o‘zgarishi, turli ekologik holatlar, tabiatga bog‘liq bo‘lmagan vaziyatlar nafaqat O‘zbekistonda, balki butun dunyoda suv qadrini oshirib, uni asrashni taqozo etyapti. Shu bois, dunyo hamjamiyati, mamlakatlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar suvni tejashga e‘tibor qaratib, aniq maqsadli choralar ishlab chiqyapti.





Navro‘z bayrami va uning ma’naviy ahamiyati

Navro‘z bayrami azaldan tabiat ne’matlarini asrashga chaqirib, yer, suv va qazilma boyliklardan tejab foydalanish hamda atrof-muhit tozaligini saqlashga undaydi. Globallashuv davrida bu tamoyillar dolzarb ahamiyat kasb etib, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish va isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslikni taqozo etmoqda.

Navro‘z bilan bog‘liq muhim jihatlar:

- **Ekologik madaniyat:** Tabiatni asrash, resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni toza saqlash mas’uliyati.
- **Isrofgarchilikka qarshi kurash:** Yer va suv resurslari, qazilma boyliklarni tejash.
- **Yosh avlod tarbiyasi:** Yoshlar o‘rtasida ekologik dunyoqarashni shakllantirish va innovatsion ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash.

Bu an’analar xalqimizning tabiat bilan uyg‘un yashash falsafasini ifodalaydi.

Yer, suv va havo – hayot va rizq manbai

Navro‘z azal-azaldan tabiatning bebaho ne’matlari – yer va suv resurslari, qazilma boyliklardan tejab-tergab foydalanishga, atrof-muhit tozaligini saqlashga chaqiradi.

Hozirgi globallashuv davrida bu masalalar o‘ta muhim vazifaga aylanmoqda. Mamlakatimizda shu borada ko‘p ishlar qilinmoqda. Ayni vaqtda aholida ekologik madaniyatni kuchaytirish, resurslardan oqilona foydalanish, isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Bugungi kunda biz insonlarning bu bebaho nematga munosabatimmiz qanday, afsuski ayrim insonlar tomonidan suvni isrof qilish yetmaganidek, ayrim johil kimsalar tomonidan suv havzalariga, ariq, kanal va suv shahobchalariga turli chiqindilar tashlanmoqda. Ularni ifloslantirish shu darajaga yetdiki, hatto ba’zi xonadonlar oqava - najosat suvlarini hayotimmiz manbai anhorlarga, kanallarga oqizmoqdalar. Bu ish na shariatga va na insoniy qonun qoidalarga to‘g‘ri keladi.

Suv- oziq – ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, sog‘liqni saqlash, munosib hayot kechirish va insoniyat taraqqiyotining asosiy manbaidir. Jahonda toza ichimlik suvi zaxiralarining tugash xavfi tobora oshib bormoqda. Suv tanqisligi bilan bog‘liq muammo olamshumul tahdidga aylanib, tabiiy muhitning yomonlashuviga, yashashga doir imkoniyatlarning cheklanishiga, aholi salomatligining yomonlashuviga olib keladi. Bugun sayyoramizning qirqdan ortiq mamlakatida istiqomat qiluvchi **2 milliard**dan ko‘proq odam suv tanqisligidan aziyat chekmoqda. Bu yerda bir narsaga etibor berish kerakki, Yer yuzida yeng ko‘p tarkalgan moddalardan biri suv bo‘lsa xam uning **98 foizi** okeanlarning sho‘r suviga to‘g‘ri keladi. Chuchuk suv zahiralarning fakat **0,01 foizi** istemol kilish uchun yaroklidir.

O'zbekiston Respublikasida suv resurslaridan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish va kelajak avlod uchun saqlab qolish masalasi davlat siyosatining eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Suv – hayot manbai. Inson salomatligi, qishloq xo'jaligi, sanoat va iqtisodiyot barqarorligi bevosita suvga bog'liq. Shu bois suvdan foydalanishda belgilangan tartib va qonunlarga rioya qilish har bir fuqaro, har bir korxona va tashkilotning muqaddas burchi hamda qonuniy majburiyatidir.

Mehnat va bunyodkorlik fasli

Navro'z deganda, avvalo, ko'z oldimizda yerga urug' qadayotgan, ko'chat o'tqazayotgan bobodehqon siymosi namoyon bo'ladi.

Afsuski, global iqlim o'zgarishlari tufayli qishloq xo'jaligida ko'plab muammolar paydo bo'lmoqda. Bu dehqon va fermerlar uchun katta qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Ularni yengib o'tish uchun amalga oshirilayotgan islohotlar mavzusi — Navro'z tadbirlarining muhim qismi bo'lishi mumkin.

O'zbekiston hozirgi kunda chinakam bunyodkorlik o'lkasiga aylanmoqda. Keng miqyosdagi qurilish va obodonlashtirish ishlari tufayli shahar va qishloqlarimiz qiyofasi tubdan o'zgarmoqda. Zamonaviy korxonalar, ishlab chiqarish majmualari, shinam uy-joylar, yangi-yangi bog'cha va maktablar, tibbiyot, madaniyat va sport maskanlari, yo'llar va kommunikatsiya tarmoqlari bunyod etilmoqda.

Tavsiyalar: ekologik va media aksiyalar davomida tabiiy muammolar insonning nojo'ya harakatlari sababli kelib chiqishi, hayot tarzimizni barqaror rivojlanish maqsadlari yo'lida o'zgartirishimiz zarurligiga urg'u berish lozim. Yurtdoshlarimizni o'z uyi, ko'chasi va mahallasini obod etishga chaqirish bayramga tayyorgarlik tadbirlarida o'z ifodasini topishi ayni muddao bo'ladi.

Navro'z bayrami arafasida o'tkaziladigan hasharlar davomida irrigatsiya tarmoqlarini tozalash, yerni ekishga tayyorlash, dov-daraxtlarni butash, uch avlod vakillari — bobo, ota va nabiralar ishtirokida nihol ekish tadbirlarini tashkil etish, oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik toza mahsulotlar yetishtirish, sog'lom turmush tarzi kabi masalalarga e'tibor qaratish muhimdir.

Navro'z sayillari

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining — yurtimizdagi har bir hududning Navro'z bayramini nishonlash bo'yicha o'ziga xos urf-odat va an'analari mavjud.

Bo'lg'usi bayram tadbir va tomoshalari ana shunday beqiyos rang-baranglikni namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

Tavsiyalar: Navro'zni nishonlash bilan bog'liq tarixiy xronikalar namoyishi hamda ko'rsatuvlarda tarixchi, tabiatshunos, etnograf, adabiyotshunos olimlar

tomonidan bu bayramning 5 ming yillik qadimiy ildizlarga ega ekaniga alohida urg‘u berilishi maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, bu boradagi qadimgi rivoyatlar, yoshi ulug‘ yurtdoshlarimizning bayram haqidagi bolalik taassurotlari aks ettirilgan lavhalarni ham tashkil etish mumkin.

Mehnat jamoalari va mahallalarda o‘tadigan bayram tadbirlarida asosiy ishtirokchilarning milliy liboslarda bo‘lishiga e‘tibor qaratish, milliy taomlar, hunarmandlik buyumlari va liboslar ko‘rgazmalarini, mohir chevarlar, usta va hunarmandlarni taqdirlash marosimlarini o‘tkazish bayramga ko‘tarinki ruh va mazmun bag‘ishlaydi.





Yoshlik va shijoat ayyomi

Navro‘z o‘zining uyg‘onish, yasharish va yangilanish borasidagi udum va an‘analari bilan doimo yoshlikni, navqironlikni, hayot go‘zalligi va jo‘shqinligini ulug‘lab keladi.

Mamlakatimiz aholisining 60 foizini yoshlar tashkil etadi. Yoshlar — Yangi O‘zbekistonning faol bunyodkoridir. Bayram ishtirokchilarining asosiy qismi ham yoshlar bo‘lishi tabiiy.

Shu bois o‘tkaziladigan tadbirlarda Yangi O‘zbekiston farzandlarining turli sohalarida erishayotgan yutuqlarini barcha yoshlarimizga o‘rnak qilib ko‘rsatish, ularni umrning har daqiqasini, bugungi hayotimizda yaratilayotgan imkoniyatlarni

qadrlashga chaqirish, vatanparvar insonlar bo'lish, doimo oldinga intilib yashashga da'vat etish o'rinlidir.

Tavsiyalar: barcha mahallalarda ommaviy hasharlar, sumalak qaynayotgan doshqozonlar atrofida keksayu yosh ishtirokida o'yin-kulgular, sayillar, ochiq maydonlarda qo'g'irchoq teatrlari va folklor tomoshalarini uyushtirish, uloq va ko'pkarilar o'tkazish, o'zbek xalq ertaklari qahramonlari siymosi tasvirlangan badiiy, hujjatli va animatsion mahsulotlar, milliy qahramonlarning merchlarini ommalashtirish ham muhim ahamiyatga ega.

Qo'g'irchoq ishlab chiqaradigan korxonalarga Alpomish, Go'ro'g'li, Oybarchin, Qaldirg'och, Kachal polvon, Shum bola va boshqa milliy qahramonlarning kattalashtirilgan timsollarini yaratish bo'yicha buyurtma berish, Navro'z sayillarida ko'chalarda milliy doston va ertaklarimiz qahramonlari siymosidagi yoshlar bilan, mashhur sportchi, «Ay-ti»chi, san'atkor, yetakchi o'g'il-qizlarimiz bilan uchrashuv va muloqotlar tashkil etish ham bayram fayzini oshirishga xizmat qiladi.



O‘zbekiston — tinchlik va do‘stlik diyori

Bizning eng katta boyligimiz — ko‘pmillatli xalqimizdir.

Bizning qudratli kuchimiz — yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalik, millatlar va dinlararo do‘stlik va hamjihatlikdir.

Mustaqillik yillarida Navro‘z barcha o‘zbekistonliklar uchun tom ma’noda sevimli umumxalq bayramiga, do‘stlik, birdamlik, bag‘rikenglik va ahillik ramziga aylandi.

Bayram tadbirlarida mamlakatimizdagi milliy-madaniy markazlar vakillarining an’anaviy ishtiroki uchun munosib o‘rin berish lozim.

Tavsiyalar: bayram tadbirlariga barcha millat va elatlar vakillarini jalb etish, Navro‘z ularning hayotining ham ajralmas bir qismiga aylanib qolganiga, milliy madaniyati va an‘analarini namoyish qilishga alohida e’tibor qaratish.

Vatanimizda o‘tadigan bayram tadbirlariga mintaqamizdagi qo‘shni davlatlar vakillarini, jumladan, bayram dasturlariga ana shu mamlakatlar san’atkorlari, folklor ansambllari va hunarmandlarini ham taklif etish, chegara hududlarida Navro‘z sayillarini birgalikda tashkil etish, milliy sport musobaqalariga (kurash, ko‘pkari, uloq, poyga va boshqalar) qardosh xalqlar jamoalarini ham jalb etish, tantanali tadbirlarda o‘zaro qon-qardoshlik, bizni bog‘lab turgan madaniy rishtalar, mushtarak tarix va umumiy kelajak to‘g‘risida fikr almashish o‘rinli bo‘ladi.

Biz dunyoga ochiq davlatmiz

Keyingi yillarda xalqaro maydonda O‘zbekistonning ochiq va erkin davlat sifatidagi imiji shakllanib, jahon miqyosida do‘st va hamkorlarimiz tobora ko‘paymoqda.

Umumbashariy g‘oyalar mujassami bo‘lgan Navro‘z bizning jahon xalqlari bilan do‘st va hamjihat bo‘lib yashash yo‘lidagi intilishlarimizni dunyoga namoyon etishda o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Bayram tadbirlarida ushbu mavzularni yoritish, jumladan, badiiy dasturlarda odatdagidek jahon san’ati namunalariga ham o‘rin berish tavsiya etiladi.

Ommaviy axborot vositalarida mamlakatimizdagi diplomatik korpus vakillari, xorijiy do‘st va hamkorlarimiz, chet ellik sayyohlarning O‘zbekiston xalqiga bildirgan tabrik va qutlovlari, mamlakatimizdagi tinchlik, barqarorlik va do‘stlik muhiti hamda bayram haqidagi taassurotlarini e’lon qilish ham ijobiy natija beradi.

Yana bir muhim jihat — Navro‘z bayramini mamlakatimizning xorijiy davlatlardagi elchixona va vakolatxonalari, vatandoshlar jamiyatlari ko‘magida chet eldagi yurtdoshlarimiz ishtirokida keng nishonlash e’tibor markazida bo‘lishi lozim.